

**IPAKCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.36/30.01.2020.Qx.103.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

IPAKCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

BOLTAYEV MANSUR O‘RAL O‘G‘LI

***BOMBYX MORI L.* TUT IPAK QURTINING NOSEMATOZ
KASALLIGIGA QARSHI KURASHISHNI INTEGRALLASHGAN
TIZIMINI ASOSLASH**

06.02.04 – Ipakchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Boltayev Mansur O‘ral o‘g‘li

Bombyx mori L. tut ipak qurtining nosematoz kasalligiga qarshi kurashishni integrallashgan tizimini asoslash.....3

Болтаев Мансур Урал угли

Обоснование интегрированной системы борьбы против нозематоза тутового шелкопряда *Bombyx mori L.*.....23

Boltaev Mansur Ural ugli

Justification of the integrated control system against nosematosis of the silkworm *Bombyx mori L.*43

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**IPAKCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.36/30.01.2020.Qx.103.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

IPAKChILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

BOLTAYEV MANSUR O‘RAL O‘G‘LI

***BOMBYX MORI L.* TUT IPAK QURTINING NOSEMATOZ
KASALLIGIGA QARSHI KURASHISHNI INTEGRALLASHGAN
TIZIMINI ASOSLASH**

06.02.04 – Ipakchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Qx1572 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Ipakchilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.silkscience.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Ismatullaeva Diloram Adilovna

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Jaxongir Adxamovich

texnika fanlari doktori, professor

Aqilov Ulug'bek Hakimovich

qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), katta ilmiy xodim


Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti "Ipakchilik va tutchilik" kafedrasini

Dissertatsiya himoyasi Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.36/30.01.2020.Qx.103.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 17.05 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 100055, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Ipakchi ko'chasi, 1-uy. Tel.: (+99871) 2498356; faks: (+99871) 2498213; e-mail: uzniish@mail.ru Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti ma'muriy binosi, 3-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Ipakchilik ilmiy tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 07 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil 100055, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Ipakchi ko'chasi, 1-uy. IITI ARM, 3-qavat. Tel.: (99871) 249-82-13.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 05.09 kuni tarqatildi.
2025 yil 7.04.7 -raqamli reestr bayonnomasi).


B.U.Nasirillayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.d., professor
S.X.Xudjamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, q.x.f.d., katta ilmiy xodim
S.T.Valiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
q.x.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida tabiiy ipak – eng qimmatli to‘qimachilik tolasi bo‘lib, unga qiziqish va talab jahon bozorida muttasil ortib bormoqda. O‘zbekiston tabiiy xom ipak yetishtirish bo‘yicha Xitoy va Hindistondan keyin 3-o‘rinda turadi. «...jahon to‘qimachilik bozorida ipakning ulushi 0,2 foizdan kamroq bo‘lishiga qaramay, xom ipakdan tayyor ipak mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar soni 60 ortiq davlatlar xissasiga to‘g‘ri keladi»¹. Xom ipak ishlab chiqarish bo‘yicha XXR (82,2 %), Hindiston (15,8 %), O‘zbekiston (0,65 %), Tayland (0,37 %) va Braziliya (0,34 %) kabi davlatlar yuqori o‘rinlarni egallaydi. Sifatli xom ipak va ipak mahsulotlari yetishtirish uchun avvalambor kasalliklardan holi tut ipak qurti tuxumi hamda sifatli ipak qurti ozuqasi talab etiladi. Bugungi kunda raqobatbardosh ipak qurti tuxumlari tayyorlash, ipak qurtlarini fiziologik jihatdan sog‘lom o‘shini ta‘minlash, qurtlar kasallanishini oldindan bashorat qilish va oldini olishda, genetik, mikrobiologik va immunologik yondoshuvlarni yagona kompleksini qo‘llash kasalliklarga qarshi kurashishning ratsional usullar va vositalaridan foydalanish orqali sifatli pilla xomashyosi va xom ipak yetishtirishga dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Hozirgi kunga kelib ipakchilik fanida tut ipak qurtida uchraydigan protozoyni – pebrina (*Nosematoz*), virusli – sariq (*Yadro poliedrozi*), bakterial kasalliklaridan – liqoq (*Streptokokli enterit*), o‘lat (*Flyasheriya*), qonchirish (*Septimitsiya*), zamburug‘li – tosh kasali (*Muskardina*) kabi ipak qurti lichinkalari uchun xavfli hisoblangan kasalliklarni oldindan aniqlash va unga qarshi turli usullarda kurashish borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa yuqumli hisoblangan avloddan-avlodga o‘tuvchi *Nosematoz* va *Yadro poliedrozi* kasalliklarining spora va poliedrlarini yo‘qotish borasida pillachilik rivojlangan XXR hamda Hindiston olimlari mikrobiologik va immunologik yangi usullarni qo‘llab yuqori natijalarga erishmoqdalar. So‘nggi yillarda ipak qurtida uchraydigan turli xildagi kasalliklarga qarshi kurashish yo‘nalishida kompleks chora-tadbirlar majmualarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda pilla yetishtirish xajmlarini ko‘paytirish va aholini bandligi hamda ularning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida oxirgi yillarda 2-3 marotaba tut ipak qurtlarini parvarishlash borasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilib, ilm fan yutuqlari va yangi agrotexnologiyalar ishlab chiqarishga keng joriy etilmoqda. «...qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shini kamida 5 foizga yetkazish..»² borasida aniq topshiriqlar belgilab berilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda tut ipak qurti kasalliklarini oldini olish va kamaytirishda yangi

¹ <https://inserco.org/en/?q=statistics>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Taraqqiyot strategiyasi” 60-farmon²

samarali innovatsion usullar va kompleks preparatlardan foydalangan holda tuxumlar sifatini yaxshilash, lichinkalarning xayotchanlik, pilla mahsuldorlik va texnologik ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 3 maydagi PF-72-sonli «Pilla yetishtirish va ipakchilik sohasida bozor mexanizmlarini joriy qilishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi hamda 2023 yil 24 fevraldagi PQ-73-sonli «Ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida» gi farmon va qarorlarida hamda sohaga tegishli boshqa xuquqiy normativ hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, veterinariya va atrof muhit muhofazasi» ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda tut ipak qurtining infeksiyon kasalliklari bilan kurashish va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, dezinfeksiylovchi vositalarni ro'yxatini kengaytirish bo'yicha O.Nusratullaev, L.F.Kashkarova, A.I.Xaxanov, Ye.A.Garafutdinova, S.Sobirov, D.A.Ismatullaeva tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

Shuningdek, xorij mikrobiolog-olimlardan J.Tanada, H.Watanabe, M.Manchev, V.A.Golovko, A.G.Aliev, I.Issilar o'z tadqiqotlarida ipak qurtini nosematoz kasalligiga qarshi ko'plab turli preparatlar sinab ko'rishgan, ular asosan sulfanilamidlar va organik kimyoviy moddalardan iborat bo'lgan. Tadqiq etilgan eng samarali vositalarni tanlab olib, ishlab chiqarishga tavsiya etilgan. Shuningdek, nosematoz organizm ichidagi parazit bo'lganligi va u xo'jayinni hujayra sitoplazmasida va ommaviy zararlanganda yadroda ham rivojlanishi mumkinligini chuqur o'rganishgan.

Bugungi kunda nosematoz bo'yicha epizootik vaziyatni o'rganish va tahlil qilish shuningdek, ipak qurtini bosh sonini saqlab qolish maqsadida davolovchi-profilaktik usul va vositalarni ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Ipakchilik ilmiy-tadqiqot institutining FA-2018-012-sonli «Tut ipak qurtining nosematoz kasalligi erta aniqlangan hollarda qo'zg'atuvchiga qarshi yangi avlod antibiotiklarini ta'sirini tadqiq etish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2018-2020 yy.).

Tadqiqotning maqsadi samarali vositalar va usullardan kompleks foydalangan holda tut ipak qurtining xavfli kasalliklaridan biri bo'lgan nosematozga qarshi kurashishni integrallashgan tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tut ipak qurti urug'larini zararsizlantirish maqsadida eng samarali zamonaviy antibiotiklarni va ularning optimal dozalarini aniqlash;

urug'larga antibiotiklar bilan ishlov berish usulini tuxumlar jonlanishi, jonlangan qurtlarni kasallanish foizi hamda ipak qurtini hayotchanligi bo'yicha baholash;

tut ipak qurtini parvarishlash jarayonida nosematoz kasalligi erta aniqlangan vaqtda turli vositalarni qo'llash;

dori vositalarni ipak qurtini biologik, mahsuldorlik va texnologik ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash;

kapalaklarni kasallanish darajasiga ko'ra eng samarali vositalarni tanlab olish;

tut ipak qurtini nosematoz kasalligini oldini olishda yangi antibiotiklar kompleksidan foydalanish bo'yicha tavsiyanoma tayyorlash;

tadqiqot natijalarini iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot ob'yekti sifatida tut ipak qurtini Ya-120 zoti, Ipakchi 1 x Ipakchi 2 mahalliy va Liangguangzhengjiao, Hoayling xorij duragaylari hamda nosematoz kasalligini qo'zg'atuvchisi xizmat qilgan.

Tadqiqot predmeti bo'lib, urug'larni jonlanishi, qurtlarni hayotchanligi, kapalaklarni kasallanish darajasi, farmasevtik dori vositalarni miqdorlari va qo'llash muddatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ipak qurti tuxumlariga ishlov berish, nosematoz kasalligi sporasini suspenziyasini tayyorlash, sun'iy yo'l bilan zararlantirish usullari va «Ipak qurti kasalliklari, diagnostikasi va profilaktikasi» uslubiy qo'llanmasi hamda «Oq pilla zotlarga mo'ljallangan agrotexnika qoidalari» dan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor ipak qurti urug'ini zararsizlantirish maqsadida keng spektrli ta'sir etuvchi antibiotiklarni, xususan *Metronidazol*, *Amoksitsillin*, *Siprofloksatsin* dozalari va ularni qo'llash ekspozitsiyalari aniqlangan;

tut ipak qurtini urug'lariga *Metronidazol*, *Sinurol*, *Amoksitsillin*, *Siprofloksatsinlarni* 0,5 % va 1,0 % li konsentratsiyalarida ishlov berish natijasida jonlanish foizi nazoratga nisbatan o'rtacha 2,0-12,0 % oshgani va kasallanish darajasini 7,6-14,9 % ga pasaygani aniqlangan;

tuxumlarga ishlov berish natijasida qurtlarni nosematoz bilan kasallanishini kamayishi hisobiga ipak qurtlarini hayotchanligi 9-11 % ga oshganligi ilmiy asoslangan;

“Antibiotiklar kompleksi” (*Metronidazol* 1,0 % bilan *Amoksitsillin* 1,0 % aralashmasi) nosematoz sporasiga nisbatan sinergetik ta'sir ko'rsatishi natijasida ipak qurtlarini hayotchanligi qiyoslovchiga nisbatan 9,5-11,5 % va kapalaklar chiqishi 7,4-8,7 foizga oshganligi aniqlangan;

sun'iy yo'l orqali (*Per os*) *Nosema bombycis* N. qo'zg'atuvchisi bilan zararlangan ipak qurtlari V-yoshining birinchi 5 kunligida tadqiq etilgan vositalar bilan oziqlantirish natijasida kasallik tarqalishi kamaygani aniqlangan;

ipak qurtini lichinkalik davrida nosematoz kasalligi erta aniqlangan hollarda yarimsintetik antibiotiklarni qo'llash xisobiga kapalaklarda kasallanish darajasini pasayganligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tut ipak qurti urug'larini nosematoz kasalligini qo'zg'atuvchilaridan zararsizlantirish uchun *Metronidazol* va *Amoksitsillin* preparatlarini optimal dozalari va ularni qo'llash ekspozitsiyalari aniqlangan;

ipak qurtini rivojlanish davrining katta yoshlarida ozuqasiga antibiotiklar qo'shib boqish natijasida kasalliklarni paydo bo'lishi oldi olinadi va qurtlarni bosh sonini saqlab qolish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. tadqiqotlarda yangi va zamonaviy uslubiyatlar va ilg'or texnik vositalardan foydalanilgani, Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti aprobatsiya komissiyasi tomonidan tadqiqot ishlari va birlamchi materiallari ijobiy baholangan, olingan raqamli ma'lumotlar biometrik, statistika usuli yordamida ishlov berilgani shuningdek, tadqiqot natijalari ishlab chiqarishga joriy qilish dalolatnomasi bilan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tut ipak qurtining urug'iga keng spektrli ta'sir etuvchi antibiotiklar aralashmasi bilan ishlov berish natijasida tuxumlarni zararsizlantirish, jonlanish foizini oshirish hamda ipak qurtlarining nosematoz kasalligi erta aniqlangan hollarda qo'zg'atuvchiga qarshi davolash-profilaktik tadbirlarini amalga oshirish natijasida qurtlar jonlanish foizi va hayotchanligini oshirish hamda ularni nobud bo'lishini kamaytirish kabi xo'jalik belgilarini yaxshilash ilmiy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijasida «Tut ipak qurtlarini boqishda nosematoz kasalligiga qarshi davolash-profilaktika maqsadida antibiotiklardan foydalanish» nomli tavsiyanoma pilla yetishtirish bilan shug'ullanadigan klaster, fermer xo'jaliklarida qurt boqish mavsumida nosematoz kasalligini tarqalishi darajasini kamaytiradi va kallikdan kelib chiqadigan zararni bartaraf etish bilan bir qatorda fermer xo'jaliklari moddiy manfaatdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tut ipak qurtining nosematoz kasalligiga qarshi kurashishni integrallashgan tizimini asoslash bo'yicha tadqiqot natijalari:

«Tut ipak qurtlarini boqishda nosematoz kasalligiga qarshi davolash-profilaktika maqsadida antibiotiklardan foydalanish» bo'yicha tavsiyanoma tasdiqlanib, Farg'ona viloyatining «Farg'ona Pilla Naslchiligi» MChJda Ipakchi 1 x Ipakchi 2 duragayini 6 quti sog'lom urug'lariga «Antibiotiklar kompleksi» bilan ishlov berilib, joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi huzuridagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 4-yanvardagi 3-8-son ma'lumotnomasi). Natijada har bir quti urug'dan qo'shimcha 8,3 kg navli pilla olinib, iqtisodiy samaradorlik

3034582,0 soʻmni tashkil etgan;

yangi yaratilgan «Antibiotiklar kompleksi» 2023 yilda Fargʻona viloyatini «Fargʻona Pilla Naslchiligi» MChJda mahalliy Ipakchi 2 x Ipakchi 1 duragayidan 10 quti sogʻlom urugʻlariga ishlov berib joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligi huzuridagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qoʻmitasining 2025-yil 4-yanvardagi 3-8-son maʼlumotnomasi). Natijada tajriba variantida qoʻshimcha 8,1 kg pilla hosili olingan va rentabellik darajasi 15,2 % koʻtarilgan;

«Antiseptik vosita» preparati bilan qurtlarni IV-yoshida 3 kun va V-yoshining birinchi 5 kunligida bir kunda 2 mahal barglarga sepib boqib, tut ipak qurtini nosematoz kasalligini oldini olish usuli Qashqadaryo viloyatini Yakkabogʻ tumani «Agro-pilla» MChJ korxonasi parvarishlanayotgan Jingsong x Haoyou horij sanoat duragayi 2 quti xajmdagi qurtlarga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligi huzuridagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qoʻmitasining 2025-yil 4-yanvardagi 3-8-son maʼlumotnomasi). Natijada tajriba qurtlari parvarishlangan xonadonda 1 quti urugʻ hisobidan qoʻshimcha 8 kg xom pilla olinib, olingan qoʻshimcha pilla hisobidan iqtisodiy samaradorlik 2607733,3 soʻm tashkil etgan, sof foyda esa 1428085,3 soʻm boʻlib, rentabellik darajasi 14,0 % ga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta tavsiyanoma, Respublika Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, jumladan 6 tasi respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan tadqiqotning dolzarbligi va hozirgi kundagi zaruriyati asoslangan, ilmiy ishning oʻrganilganlik darajasi, tajribalar materiali hamda uslubiyotlari bayon etilgan, shu bilan birga, dissertatsiya ishining tadqiqot obʻekti va predmeti shakllantirilib, Oʻzbekiston respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mos kelishi koʻrsatilgan, dissertatsiya tadqiqotining maqsad hamda vazifalari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Ipak qurtini nosematoz (pebrina) kasalligi va unga qarshi kurashishning ahamiyati**» deb nomlangan birinchi bobi 3 ta kichik

bo'limlardan iborat bo'lib, tut ipak qurtini nosematoz kasalligini va uni kelib chiqishi tarixi, kasallik qo'zg'atuvchisini biologiyasi, diagnostikasi va u bilan kurashish muammolari shuningdek, ipak qurtini kasalliklariga qarshi profilaktik chora-tadbirlarini amalga oshirishni asoslariga oid horij va respublikamiz tadqiqotchi-olimlarini ilmiy izlanishlari natijalari tahlil qilingan. Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, ipak qurti kasalliklarga qarshi kurashish ko'plab pillachilik bilan shug'illanuvchi mamlakatlar iqtisodiyoti uchun nihoyatda muhimligi aniqlangan va dunyoning turli mamlakatlaridagi biologiya mutaxassisliklar bo'yicha olimlar turli davrlarda ipak qurti kasalliklari profilaktikasi va terapevtik faoliyat yo'llari va usullari o'rganilgan hamda tut ipak qurti kasalliklariga qarshi kurashishda biokimyoviy, genetik, seleksiya, farmasevtik, mikrobiologik usullaridan foydalanish yuqori samara berishi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot materiali va uslubiyotlari**» bobida tadqiqotlar ob'ekti va materiali, o'tkazilgan joyi va uslublari hamda tajribalar sxemasi bayon etilgan. Tajribalar 2022-2024 yillar davomida Ipakchilik ITI ning «Ipak qurti va tut kasalliklari va zararkunandalari bilan kurashish» laboratoriyasida o'tkazilgan. Tadqiqot ob'ekti qilib, tut ipak qurtini Ya-120 zoti, Ipakchi 1 x Ipakchi 2 mahalliy va Liangguangzhengjiao, Hoayling xorij duragaylari va nosematoz kasalligini qo'zg'atuvchisi tanlab olindi. Tajribalar 1-rasmda keltirilgan tadqiqot sxemasi asosida bajarildi.

Dissertatsiyaning «**Sog'lom va nosematoz kasalligi bilan zararlangan urug'larga dori vositalari bilan ishlov berish**» deb nomlangan uchinchi bobida ipak qurtida uchraydigan eng xavfli kasalliklardan biri bo'lgan "pebrina" nasl suradigan kasallik bo'lganligi uchun bir qancha antibiotiklar yordamida kasallikni zarasizlantirish ya'ni avlod surishini to'xtatish maqsadida kam miqdorda nosematoz bilan kasallangan va sog'lom urug'larga (tuxumlar) preparatlarni suvli eritmaları bilan ishlov berib, preparatlarni pebrina kasalligiga ta'siri o'rganildi. Bunda tuxumlarni jonlanish va kasallanish foizlari aniqlandi. Tajribalarda oldingi yilda sun'iy yo'l bilan zaralantirilgan ipak qurtlarni kapalaklari qo'rgan urug'lardan foydalanildi. Mikroskopik tahlil natijasiga ko'ra kam darajada (3 % gacha) kasallangan kapalaklarni tuxum quymalari tanlab olindi.

Ipak qurti tuxumlariga turli antibiotiklar elektroaktivlashgan va oddiy suvlarda tayyorlangan eritmalar bilan ishlov berilgan tuxumlarni jonlanish foizi va kasallanish darajasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Nosematoz kasalligi bilan kasallangan urug'larga antibiotiklar bilan ishlov berilgan qurtlarni jonlanish va qurtlarni kasallanish foizi (2022-2024 yy.)

| T/r | Variantlar | Jonlanish foizi, % | | Qurtlarni kasallanishi, % | | Inkubasiya davrini davomiy ligi, kun |
|-------------------------------|--|------------------------|-------|---------------------------|-------|--------------------------------------|
| | | $\bar{X} \pm S\bar{x}$ | C_v | $\bar{X} \pm S\bar{x}$ | C_v | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| 2022 yil (Ya-120 zoti) | | | | | | |
| 1 | <i>Metronidazol 0,5 % + Katolit</i> (tirik suv) | 85,0±1,73 | 3,16 | 9,5±2,68 | 49,12 | 11 |

1-jadvalning davomi

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
|--|--|------------------------|------|------------------------|-------|----|
| 2 | <i>Metronidazol + Amoksitsillin 0,5 % + Katolit (tirik suv)</i> | 85,0±1,15 | 2,11 | 10,5±1,83 | 30,22 | 10 |
| 3 | <i>Sinurol 0,6 % + Metronidazol 0,5 %</i> | 81,3±2,6 | 4,94 | 12,8±1,0 | 1,9 | 10 |
| 4 | <i>Metronidazol 0,5 % + siprofloksitsin 0,5 %</i> | 82,0±0,58 | 1,09 | 8,0±1,9 | 3,7 | 10 |
| 5 | <i>Siprofloksitsin 0,5 % + Katolit (tirik suv)</i> | 83,2±2,03 | 3,76 | 10,2±0,1 | 1,9 | 10 |
| 6 | <i>Katolit pH 11-12 (tirik suv)</i> | 79,0±3,79 | 8,3 | 13,9±3,8 | 58,2 | 11 |
| 7 | <i>Metronidazol 0,5 % + Anolit (o'lik suv)</i> | 79,2±1,15 | 2,67 | 15,6±3,1 | 33,1 | 11 |
| 8 | <i>Metronidazol 0,5 % + Amoksitsillin 0,5 % + Anolit (o'lik suv)</i> | 84,1±1,73 | 3,61 | 12,0±2,8 | 5,6 | 10 |
| 9 | <i>Anolit pH2-4 (o'lik suv)</i> | 81,0±1,15 | 2,47 | 16,0±3,2 | 34,4 | 11 |
| 10 | <i>Qiyoslovchi (suv b-n ishlov berilgan)</i> | 79,0±3,46 | 7,59 | 27,6±0,6 | 3,8 | 12 |
| 11 | <i>Qiyoslovchi (ishlov berilmagan)</i> | 77,0±2,31 | 5,19 | 29,8±0,9 | 2,2 | 12 |
| 12 | Pd= 0,870-0,999 | | | Pd= 0,850-0,999 | | |
| 2023 yil (Ipakchi 1 x Ipakchi 2 duragayi) | | | | | | |
| 1 | <i>Metronidazol 1,0 %</i> | 82,7±1,76 | 3,3 | 15,1±5,5 | 62,9 | 10 |
| 2 | <i>Amoksitsillin 1,0 %</i> | 84,1±1,73 | 3,19 | 16,7±1,6 | 16,9 | 10 |
| 3 | <i>Metronidazol 1,0 % + Amoksitsillin 1,0 %</i> | 81,6±1,2 | 2,27 | 13,2±1,7 | 3,4 | 10 |
| 4 | <i>Metronidazol 1,0 % + Sirofloksasin 1,0 %</i> | 85,0±1,73 | 3,23 | 11,6±1,5 | 2,9 | 10 |
| 5 | <i>Qiyoslovchi (suv b-n ishlov berilgan)</i> | 80,6±1,2 | 2,55 | 27,6±3,1 | 7,4 | 11 |
| 6 | <i>Qiyoslovchi (ishlov berilmagan)</i> | 79,1±1,73 | 3,8 | 31,6±1,6 | 8,6 | 11 |
| | | Pd= 0,540-0,999 | | Pd= 0,979-0,999 | | |
| 2024 yil (Ipakchi 1 x Ipakchi 2 duragayi) | | | | | | |
| 1 | <i>Metronidazol 0,5 % + Amoksitsillin 0,5 % (1 soat)</i> | 87,6±2,33 | 4,61 | 11,9±1,3 | 18,7 | 10 |
| 2 | <i>Metronidazol 0,5 % + Amoksitsillin 0,5 % (2 soat)</i> | 84,3±1,45 | 2,98 | 10,9±0,8 | 13,0 | 10 |
| 3 | <i>Metronidazol 1,0 % + Amoksitsillin 1,0 % (1 soat)</i> | 90,0±1,73 | 3,33 | 8,5±2,8 | 57,7 | 10 |
| 4 | <i>Metronidazol 1,0 % + Amoksitsillin 1,0 % (2 soat)</i> | 89,0±1,73 | 3,37 | 7,5±3,5 | 81,0 | 10 |
| 5 | <i>Formalin 2,0 % (3 minut)</i> | 91,0±1,17 | 3,3 | 4,5±2,3 | 86,6 | 10 |
| 6 | <i>Formalin 2,0 % (5 minut)</i> | 89,0±1,0 | 1,9 | 3,3±0,6 | 31,9 | 10 |
| 7 | <i>Qiyoslovchi (suv bilan ishlov berilgan)</i> | 82,5±3,18 | 7,03 | 18,3±3,7 | 7,8 | 12 |
| 8 | <i>Qiyoslovchi (ishlov berilmagan)</i> | 79,0±1,73 | 3,8 | 20,4±1,8 | 15,4 | 12 |
| | | Pd= 0,807-0,999 | | Pd= 0,921-0,999 | | |

Yuqorida keltirilgan 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2022 yildagi tajriba variantlaridagi urug‘larni jonlanishi nazorat variantiga nisbatan yuqori ekanligi. Masalan tajriba variantlarida jonlanish foizi 79,2-85,0 % atrofida bo‘lsa, unga qarshi nazoratda esa 77,0 % tashkil etdi. Bunda o‘rtacha hisobda jonlanish 2,0 dan 8,0 % gacha ko‘tarilgani aniqlandi. Eng yaxshi ko‘rsatkich 2-variant (*Metronidazol* 0,5 % + *Amoksisillin* 0,5 % + Katolit pH 11-12) va 5-variantda (*Metronidazol* 0,5 % + *Amoksisillin* 0,5 % + Anolit pH2-4) aniqlanib, bu ko‘rsatkich 85,0 va 84,1 % ni tashkil etdi. Nazorat variantiga (77,0 %) nisbatan 8,0 va 7,1 % yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.

2023 yilda Ipakchi 1 x Ipakchi 2 duragay urug‘larida antibiotiklarni boshqa konsentrasiyalarda kompleksi tadqiq etildi. Pebrina kasalligi bilan zararlangan urug‘larga antibiotiklar bilan ishlov berish natijasida tuxumlarni jonlanishi 81,6-85,0 % ni tashkil etdi, qiyoslovchi variantida esa 79,1 % bo‘lgani ma‘lum bo‘ldi. Yuzaga kelgan tafovut bilan urug‘larga ishlov berilgan variantlar 1,5-5,6 % ga ustunlik qilishdi. Shuningdek, inkubasiya davri 10 kundan iborat bo‘lib, qiyoslovchiga nisbatan 1 kun ertaroq va birdamlik bilan jonlangani aniqlandi.

2024 yilda tajribalar 2 xil (1 va 2 soat davomida ishlov berish) ekspozitsiyada mahalliy Ipakchi 1 x Ipakchi 2 duragay urug‘larida olib borildi. Olingan natijalarga qaraydigan bo‘lsak, *Metronidazol*, *Amoksisillin* antibiotiklar aralashmasidan tayyorlangan suvli eritmalarda ishlov berilgan urug‘larni jonlanish foizi bo‘yicha eng yuqori o‘rinni uchinchi variant (90,0 %), va keyigi o‘rinni to‘rtinchi variantda (89,0 %) ega bo‘ldi. Umuman urug‘larga ishlov berilmagan qiyoslovchi variantda jonlanish foizi – 79,0 % ekanligi aniqlandi.

Eng yaxshi natija bilan *Metronidazol* 1,0 % va *Amoksisillin* 1,0 % miqdorli kombinatsiyasida normal pillalar soni – 166 dona, qurtlar hayotchanligi – 83,0 % va kapalaklarni chiqishi 81,9 % ko‘rsatkichlari bilan ajralib turgani kuzatildi.

Mazkur antibiotiklar aralashmasi bilan parvarishlangan va nazorat variantini V-yosh qurtlarini ko‘rinishi 1 va 2-rasmlarda keltirilgan.



1-rasm. *Metronidazol* 1,0 % bilan *Amoksisillin* 1,0 % aralashmasi bilan ishlov berilgan urug‘lardan chiqqan ipak qurtlari (tajriba).



2-rasm. Ishlov berilmagan urug‘lardan chiqqan ipak qurtlari (qiyoslovchi).

1 va 2-rasmlardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, ipak qurti urug‘larini *Metronidazol* 1,0 % va *Amoksisillin* 1,0 % aralashmasi bilan ishlov berish


natijasida V-yosh qurtlari sog‘lom, normal ozuqlanishini kuzatildi. Nazorat varianti qurtlarini rivojlanishida xilma xillik kuzatilmoqda, shuningdek, po‘st tasholmagan va orqada qolganlari mavjud.

Adabiyotlardagi ma‘lumotlar asosida tadqiqotlarimizda *Metronidazol* preparatini *Amoksitsillin* yoki *Siprofloksatsin* antibiotiklari bilan sinab ko‘rildi. Aniqlangan natijalar bo‘yicha shuni aytish mumkinki, *Metronidazol* qo‘shimcha antibiotik bilan aralash mikroblarga nisbatan ta‘sir etishda sinergizm xususiyatini namoyon etdi. Ma‘lumki, *sinergizm* – bu qo‘shimcha xarakterlar yoki dorilar bilan ta‘sir etish jarayonni kuchaytirish deb ifodalanadi.

Dissertatsiyaning «**Tut ipak qurtining nosematoz kasalligini oldini olish maqsadida ipak qurtlarini lichinkalik davrida turli preparatlarni tadqiq etish**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida ipak qurtining lichinkalik davrida sinovlar olib borildi. Bunda doksitsillin, levofloksasin, trixopol, vodorod perikisi, tibbiyot spirti vositalarni alohida va aralashmalarini har xil kotsentrsiyalarda ipak qurtini “Ipakchi 1 x Ipakchi 2” hamda xorij “Hoayling” duragaylaridan qo‘llanildi.

Ipak qurtining IV-yoshini 1 kunida nosematoz kasalligi qo‘zg‘atuvchisi bo‘lgan, sporalar suspenziyasi bilan sun‘iy yo‘l orqali zaralanirildi. So‘ng ipak qurtlarini V-yoshini birinchi besh kunligida har kuni 2 mahal (ertalab va kechkurun) qurtlarga preparatlar eritmalarini sepib berilgan barglar bilan oziqlantirildi.

Tadqiqotlar natijalarga ko‘ra, tajribada qurtlarni nobud bo‘lishi 5-14 dona yoki 2,7-7,6 % tashkil etdi. Nazorat variantida (qo‘shimcha vositalar bilan boqilmagan, lekin pebrina bilan zararlangan) qurtlarni nobud bo‘lish holati ancha yuqori bo‘lib, 25 dona yoki 14,0 % tashkil etdi. Eng samarali natija 8-variant (*Doksitsiklin 0,1 % + Trixopol 0,1 %*), 6-variant (*Trixopol 0,1 %*) va 7-variant (*Doksitsiklin 0,05 % + Trixopol 0,05 %*) aniqlandi va bu yerda qurtlarni zararlantirish darajasi boshqa tajriba variantlariga nisbatan pastroq bo‘lib, 2,7; 3,6; va 3,8 % tashkil etdi. Nazorat variantiga nisbatan 11,3; 10,4 va 10,2 % ga kaymayishiga erishildi. Boshqa tajriba variantlarida ham nazoratga nisbatan ustunlik mavjud va yuzaga kelgan farq 9,3-6,4 % ni tashkil etdi (3-rasm).



3-rasm. Ipak qurtlarini nobud bo‘lish ko‘rsatkichlari (2022-2024 yy.).

3-rasmdan xulosa qilish mumkinki, ipak qurtlarini IV va V-yoshlarida ozuqasi turli preparatlar bilan ishlov berib boqilishi natijasida ularni kasallanishi kamaygani hamda nobud bo'lish holatlarini kaymaytirishga erishildi. Bu esa o'z navbatida tajribalarga preparatlarni tavsifi bo'yicha keng doirada mikroob, mikroorganizm va bakteriyalarga qarshi ta'sir etish qobiliyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

2-jadval

Tut ipak qurtlarini biologik ko'rsatkichlari va lichinkalik davrini davomiyligi (2022-2024 y.)

| № | Variantlar | Ipakchi 1 x Ipakchi 2 duragayi | | | |
|----|---|--------------------------------|-----------------------------|----------------------------|---------------------------------|
| | | Sog'lom pillalar soni, dona | 1 dona pillani og'irligi, g | Qurtlarni xayotchanligi, % | Qurtlik davrini davomiligi, kun |
| 1 | <i>Doksisiklin 0,05 %</i> | 172 | 1,69±0,006* | 86,0±0,99** | 30 |
| 2 | <i>Doksisiklin 0,1 %</i> | 175 | 1,70±0,010 | 87,5±1,02 | 29 |
| 3 | <i>Levofloksasin 0,05 %</i> | 170 | 1,70±0,022 | 85,0±1,44 | 30 |
| 4 | <i>Levofloksasin 0,1 %</i> | 174 | 1,72±0,003 | 87,0±1,21 | 30 |
| 5 | <i>Trixopol 0,05 %</i> | 179 | 1,70±0,021 | 89,5±0,78 | 30 |
| 6 | <i>Trixopol 0,1 %</i> | 181 | 1,72±0,020 | 90,5±0,52 | 29 |
| 7 | <i>Doksisiklin 0,05 % + Trixopol 0,05 %</i> | 176 | 1,68±0,010 | 88,0±2,34 | 29 |
| 8 | <i>Doksisiklin 0,1 % + Trixopol 0,1 %</i> | 178 | 1,69±0,012 | 89,0±2,34 | 29 |
| 9 | <i>Vodorod perikisi 0,03 % + tibbiyot spirti 0,07 %</i> | 174 | 1,70±0,002 | 87,0±1,62 | 29 |
| 10 | Nazorat (kasallangan qurtlar) | 149 | 1,56±0,004 | 74,5±2,33 | 31 |


*Pd=0,980-0,999

**Pd=0,785-0,999

2-jadvalda keltirilgan 3 yillik ma'lumotlarga ko'ra, tajriba variantlarini barcha biologik ko'rsatkichlarida ijobiy natijalar olingan. Bunda sog'lom, ya'ni normal pillar soni tajriba variantlarida 170-181 donani tashkil etsa, nazoratda esa 149 dona bo'ldi. Nazorat variantiga nisbatan 21-32 donaga oshirishga muvofiq bo'ldik. Pillani og'irligi tahlil qilinganda, preparatlar bilan oziqlangan variantlarda 1,68-1,72 g oralig'ida bo'lsa, unga qarshi nazorat variantida esa 1,56 g ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichda ham tajriba variantlari nazoratga nisbatan 0,12-0,16 grammga ustunligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, ipak qurtlarini hayotchaligi tajribada 86,0-90,5 % oralig'ida bo'lsa, nazoratda esa 74,5 % tashkil topdi. O'rtadagi farq 11,5-16,0 % tashkil etdi.

Ipak qurti kapalaklarini mikroskopik ko'rigidan o'tkazilganda, ularni kasallanish ulushi bo'yicha tajriba variantlari (1,7-3,5 %) nazoratga (10,8 %) nisbatan qurtlarni preparat eritmalari bilan boqilgani hisobiga 9,1-7,3 % oshirishga erishildi. Bu esa o'z navbatida tadqiq etilgan farmasevtik preparatlar samarasi deb aytilsa xech mubolag'a bo'lmaydi.

Dori vositalar bilan parvarishlangan qurtlar o'ragan pillalarni mahsuldorlik ko'rsatkichlari aniqlandi.



4-rasm. Ipakchanlik ko‘rsatkichlari (2023-2024 yy.)

4-rasmda keltirilgan ipakchanlik ko‘rsatkichini tahlil qiladigan bo‘lsak, pillaning ipakchanlik ko‘rsatkichlarini qiyoslovchi bilan taqqoslaganda, xorij duragayida 0,5-1,3 % ga oshganligi va mahalliy duragay pillalarida 1,0-2,1 % ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Bundan shunday hulosalar qilish mumkin: tadqiq etilgan antibiotik va antiseptik vositalari ipak qurtlarini kasallikdan himoya qilishi bilan birga ularni yashovchanligini va pillaning ipakchanlik ko‘rsatkichini ham oshishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, ipakchanlik ko‘rsatkichi bo‘yicha eng yaxshi natijalar bilan vodorod perikisi 0,03 % + tibbiyot spirti 0,07 foizli variantida - 21,6 % va trixopol 0,1 % li - 21,1 % bo‘lib ajralib turibdi. Natijada qiyoslovchiga (20,3 %) nisbatan 1,3-0,8 % ga ortganligi ma’lum bo‘ldi.

Kapalaklarni mikroskopik tekshiruvdan o‘tkazilganda, xorij duragay kapalaklarini kasallanish foizi – 3,4-5,3 %, qiyoslovchida – 6,1 % ni tashkil etdi. Bunda tajriba variantlari qiyoslovchiga nisbatan 0,8-2,7 % ga kasallanishni kamaygani aniqlandi. Mahalliy duragay kapalaklarida umumiy kasallanish – 3,2-5,0 % ni va qiyoslovchi variantida esa 7,2 %. O‘rtadagi farq 2,2-4,0 % bo‘lib, tajriba materialining kasallanishini shuncha foizga kamayganidan dalolat beradi.

Mazkur tajribalar yoz mavsumida ham olib borildi, bunda XXR “Liagguangfanjiao” sanoat duragayidan foydalanildi (3-jadval).

3-jadval

Tut ipak qurtlarini biologik ko‘rsatkichlari va lichinkalik davrini davomiyligi (2022-2023 yy., yoz)

| № | Variantlar | Sog‘lom pillalar soni, dona | 1 dona pillani og‘irligi, g | Qurtlarni xayotchanligi, % | Qurtlik davrini davomiyligi, kun |
|---|---------------------|-----------------------------|-----------------------------|----------------------------|----------------------------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1 | Doksitsiklin 0,05 % | 223±21,3* | 1,03±0,01** | 89,2±2,12*** | 29 |

3-jadvalning davomi

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
|----|---|----------|-----------|-----------|----|
| 2 | <i>Doksisiklin 0,1 %</i> | 227±10,6 | 1,05±0,02 | 90,8±1,14 | 29 |
| 3 | <i>Levofloksasin 0,05 %</i> | 215±25,0 | 1,07±0,01 | 86,2±2,31 | 30 |
| 4 | <i>Bitsillin 0,05 %</i> | 213±6,8 | 1,06±0,06 | 85,5±3,16 | 30 |
| 5 | <i>Bitsillin 0,1 %</i> | 217±15,4 | 1,04±0,03 | 87,4±1,07 | 30 |
| 6 | <i>Trixopol 0,05 %</i> | 229±20,0 | 1,12±0,04 | 91,6±1,64 | 29 |
| 7 | <i>Trixopol 0,1 %</i> | 229±14,1 | 1,10±0,07 | 91,6±2,23 | 29 |
| 8 | <i>Doksisiklin 0,05 %</i> <i>+ Trixopol 0,05 %</i> | 230±17,2 | 1,13±0,01 | 92,0±2,05 | 29 |
| 9 | <i>Doksisiklin 0,1 % + Trixopol</i> <i>0,1 %</i> | 223±21,3 | 1,13±0,02 | 92,2±1,45 | 29 |
| 10 | <i>Vodorod perikisi 0,03 % +</i> <i>tibbiyot spirti 0,07 %</i> | 222±12,0 | 1,07±0,01 | 88,8±1,32 | 29 |
| 11 | <i>Vodorod perikisi 0,05 % +</i> <i>tibbiyot spirti 0,07 %</i> | 228±13,1 | 1,11±0,02 | 91,2±0,95 | 29 |
| 12 | Qiyoslovchi (kasallangan qurtlar) | 209±14,8 | 1,02±0,05 | 80,4±1,15 | 31 |

* Pd=0,850; ** Pd=0,999; ***Pd=0,929

Yuqorida keltirilgan jadvalda 2 yillik ma'lumotlardan yaqqol ko'rinib turibdiki, ipak qurtini qurtlik davrida turli farmasevtik vositalar bilan ishlov berilgan barglar bilan ozuqlantirish natijasida, tajriba variantlari qiyoslovchiga nisbatan ustunlik qilishdi.

Masalan, har bir variantlarda qurtlar 200 donadan parvarishlandi. Shunda sog'lom pillalar soni tajriba variantlarida 213-229 dona bo'lib, qiyoslovchida – 209 donani tashkil etdi. O'rtadagi farq 4-20 donadan iborat bo'ldi. Bir dona pilla og'irligi – 0,83-1,01 gramm va qiyoslovchida esa 0,82 g bo'lib, tajriba varianti 0,01-0,19 g yuqori bo'lgani ma'lum bo'ldi. Qurtlarning hayotchanligi 85,5-92,2 %, qiyoslovchi – 80,4 % bo'lgani aniqlandi. O'rtadagi farq 5,1-11,8 % tashkil etib, tajriba variantlarini qiyoslovchiga nisbatan oshganligidan dalolat beradi.

Eng yaxshi ko'rsatkichlar *Trixopol 0,05 va 0,1 %*, *Doksisiklin+Trixopol 0,05; 0,1 %* va *Vodorod perikisi 0,05 % + tibbiyot spirti 0,07 %* miqdorlarida ipak qurti hayotchanligini oshirishga sabab bo'ldi, bu esa o'z navbatida qurtlarni bosh sonini saqlab qolishga va albatta pilla hosili, sifatini ko'tarishga erishilgandan dalolat beradi. Qurtlik davrining davomiyligi ham tajriba variantlarida 29 kunni tashkil etib, qiyoslovchidan 2 kunga qiskargani kuzatildi. Faqat Levofloksasin va Bitsillin variantlarida 30 kunni tashkil etdi.

Pillalardan chiqqan kapalaklarni mikroskopik tahlildan o'tkazildi, bundan maqsad tadqiq etilgan preparatlar qay darajada ta'sir etkanini baholashdan iborat edi. Har bir kapalak alohida tekshiruvdan o'tkazilib, 50 ko'rish maydondan kam bo'lmagan holda tahlildan o'tkazildi. Mikroskopik tekshiruvda zamonaviy mikroskopdan foydalanildi (5-rasm).

Kapalaklarni kasallanish darajasi, %



5-rasm. Kapalaklarning kasallanish foizi (2022-2023 yy, yoz)

